

**TO'QIMACHILIK KORXONALARI XARAJATLARIGA
TA'SIR QILUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK
MODELLASHTIRISH****ECONOMETRIC MODELING OF FACTORS INFLUENCING
THE COSTS OF TEXTILE ENTERPRISES****¹Safarov Javohir
Ismoilovich***¹Fan va texnologiyalar universiteti, "Moliya va moliyaviy
texnologiyalar" kafedrasi mudiri. ORCID: 0009-0006-0530-7601,
E-mail: j.safarov@usat.uz***Annotatsiya
Abstract**

Uzb. - Maqolada to'qimachilik korxonalarida xarajatlarni tasniflash, korxonalar xarajatlarini kamaytirish, foydani oshirish, investitsiyalarni jalb etish masalalariga e'tibor qaratilgan. Mazkur maqolada xarajatlarga ta'sir etuvchi omillarning tahlili va ularning uzoq muddatga mo'ljallangan prognozi ishlab chiqilgan bo'lib, to'qimachilik korxonalarida xarajatlarni kamaytirishning ekonometrik modellari va xarajatlarga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha takliflar berilgan.

Eng. - This article examines cost classification, reducing production costs, increasing profits, and attracting investment in textile enterprises. It analyzes factors influencing production costs and makes long-term forecasts, develops econometric models for reducing production costs at textile enterprises, and provides proposals for factors influencing production costs.

**Kalit so'zlar:
Keywords:**

❖ *xarajatlarga ta'sir qiluvchi kapital rentabellik ko'rsatkichi, ARDL modeli, qarzdorlik koeffitsienti, Shvarts mezon, avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL), ekonometrik modellashtirish.*
❖ *effective return on equity, ARDL model, debt ratio, Schwarz criterion, autoregressive distribution (ARDL), econometric modeling.*

Kirish.

Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasiga muvofiq iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan to'qimachilik korxonalariga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirishga e'tibor qaratilmoqda. "Zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish asosida to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravar va charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni 3 baravarga ko'paytirish" [1] vazifasi belgilangan. Mazkur vazifalardan kelib chiqib, respublikamiz to'qimachilik korxonalarini rivojlantirishning ishlab chiqarish xarajatlarini

pasaytirish, foydani oshirish va moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi tanlab olingan. Shu maqsadda to'qimachilik korxonalarini faoliyatini modernizatsiyalash va mahsulotlar assortimentini diversifikatsiyalash maqsadlari uchun hisob va audit tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish va samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Ilmiy va amaliy manbalarda keltirilgan nazariy va uslubiy yondashuvlar tahlili ishlab chiqarish sanoatining xo'jalik yurituvchi subyektini boshqarish tizimida bilvosita xarajatlarni aniqlashning mavjud usulining

yo'qligini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish tannarxi ayrim iqtisodchilar masalan S.A.Pivkinning ta'kidlashicha, "bilvosita xarajatlar korxonalarida ishlab chiqaradigan mahsulot hajmiga bog'liq emas va ularni har bir mahsulot turiga mutlaqo to'g'ri kiritish mumkin emas" [3]. Shundan kelib chiqqan holda, bilvosita xarajatlarni moliyaviy mas'uliyat markaziga yoki ma'lum turdagi mahsulotga bog'lash juda qiyin ekanligini inobatga olish zarur. Buning sababi ayrim iqtisodchi olimlar Y.A.Grishinaning ta'kidlashicha "bilvosita xarajatlar sanoat ishlab chiqarish jarayonini ta'minlaydi, lekin unda bevosita ishtirok etmaydi" degan fikrni bildirgan [5].

Bundan tashqari bir qator iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari ham xuddi shunday fikrda ekanligini tasdiqlashi mumkin. Masalan, Y.R.Muxinaning fikricha, sanoat korxonalarida xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlashda bevosita xarajatlar "asbob-uskunalarini tashish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, mashinalar va uskunalarni sozlash, har xil turdagi energiya bilan ta'minlash, saqlash, asboblarni va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish, texnologiya" kabi sohalarini ham o'z ichiga qamrab oladi degan fikr bilan chegaralanadi [4].

Sanoat korxonalarida dizayn, ishlab chiqarishni rejalashtirish, marketing, buxgalteriya hisobi va boshqa sohalariga ham alohida e'tiborni qaratishni taqozo etadi. Tekshirilayotgan xarajatlardagi o'zgarishlar va bir qator bilvosita xarajatlar (ma'muriy xodimlarning ish haqi, kommunal xizmatlar, ishlab chiqarish uskunalari eskirishi va ijarasi va boshqalar) xizmat ko'rsatish va yordamchi jarayonlarni amalga oshirish sohalaridan tashqarida paydo bo'ladi, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri asosiy ishlab chiqarish bo'linmalarida amalga oshirilmaydi. Bizning fikrimizcha, sanoat korxonalarida buxgalteriya hisobi texnikasi va usullarini o'rganish, ishlab chiqarish xarajatlarning bilvosita xarajatlarni taqsimlash uchun asos sifatida eng talabchan ko'rsatkichlarni aniqlash, bu asosiy ishlab

chiqarish xodimlarining ish haqi, moddiy xarajatlar, daromadning shakllanishi ko'rib chiqilgan korxonalarining buxgalteriya hisobi amaliyotidagi holati o'rganilgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek, o'rganilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobi amaliyotini tartibga soluvchi hujjatlarida, afsuski, u yoki bu ko'rsatkichni tanlashni oqlaydigan aniq mezonlar yo'q. Bu korxonalar buxgalterlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, ularni qo'llash, qoida tariqasida, empirik asosda qo'llanadigan an'analar, mutaxassislar sezgisi va kamdan-kam hollarda iqtisodiy masalalar birinchi o'rinda turadi degan fikrga kelish uchun asos bo'ladi.

N.D.Vrublevskiyning ta'kidlashicha "asosiy xodimlarning ish haqi" bo'lib, u ma'lum uslubiy usulda aks ettirilgan [6]. Bizning fikrimizcha, bu manba shuni ko'rsatadiki, bu ko'rsatkichni qo'lda va kam mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish sharoitida bilvosita xarajatlarni taqsimlash uchun asos sifatida ishlatish maqsadga muvofiqdir; moddiy xarajatlar ko'rsatkichlari – moddiy iste'mol darajasi yuqori bo'lgan korxonalar uchun daromad – tashkilot budjetiga bilvosita xarajatlarning katta yuki bilan ta'sirini ko'rsatadi degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada to'qimachilik korxonalarida xarajatlarga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish va uzoq muddatga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Unda analiz, sintez, guruhlash, taqqoslash va koeffitsientlar kabi usullardan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Maqolada mamlakatimizdagi to'qimachilik korxonalarida xarajatlarga ta'sir qiluvchi kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE), aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA), qarzdorlik koeffitsiyenti (DR) va qarz

kapitalining o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyentlarini (D/E) ta'sirini avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL estimation) yordamida ekonometrik modellashtirish nazarda tutilgan.

Tadqiqotimizda ushbu omil mustaqil o'zgaruvlar kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE), aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA), qarzdorlik koeffitsiyenti (DR) va qarz kapitalini o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyentlar (D/E) hisoblanib, tobe o'zgaruvchi to'qimachilik korxonalarida xarajatlarini o'sishi hisoblandi. Tanlangan ma'lumotlar bazasi chorakli ma'lumotlar asosida 2017-2024 yillarni o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar asosida to'qimachilik korxonalarida xarajatlarini o'sishiga kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE), aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA), qarzdorlik koeffitsiyenti (DR) va qarz kapitalini o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyentlar (D/E) ta'siri murakkab ekonometrik usullarga asoslangan avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modeli shakllantirildi.

Birinchi bo'lib avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modeli Pesaran va Shinning tadqiqotlarida erkli va erksiz o'zgaruvchilarining uzoq va qisqa muddatda kointegratsiyasini aniqlash uchun foydalanilgan [8]. Yoxansen va Yuzelius kointegratsiya tadqiqotidan farqli ravishda ularining tadqiqotlari har bir o'zgaruvchilarining uzoq muddatda kointegratsiyasini vektor ko'rsatkichlari orqali aniqlashni ko'rsatgan [9]. Avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modeli xususiyati shundan iboratki, mustaqil o'zgaruvchilar bilan tobe o'zgaruvchilar o'rtasidagi uzoq muddatli bog'lanishda o'zgaruvchilar nolinchinchi ayirma $I(0)$ va birinchi ayirma $I(1)$ bo'lishi lozim. Avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modelining qulaylik tumonlari quyidagilardan iboratdir.

Birinchi avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modeli regressiyadagi o'zgaruvchilarning endogenlik muammosini hal qiladi. Chunki, o'zgaruvchilarining

qoldiqlari korrelyatsiyani erkinligini ta'minlaydi.

Ikkinchidan, tobe o'zgaruvchi bilan mustaqil o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni har biri bo'yicha kointegratsiyasini aniqlaydi. Natijasida, erkli o'zgaruvchili bilan endogen o'zgaruvchilarining bog'liqlikdagi muammolarni kamaytirishni amalga oshiradi [9].

Uchinchi avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modeli o'zgaruvchilarining o'rtasidagi kointegratsiyani uzoq muddatli bo'lishi bilan birga qisqa muddatda bo'lishini ham aniqlay oladi.

To'rtinchidan, avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modeli o'zgaruvchilarining o'rtasidagi kointegratsiyani uzoq muddatli bo'lishi bilan birga qisqa muddatda bo'lishini ham aniqlay oladi.

Tadqiqotimizda investitsiya fondiga ta'sir qiluvchi omillar orqali avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modelini shakllantirishda quyidagi bosqichlarni amalga oshirildi. Birinchi navbatda o'zgaruvchilarning yagona ildiz testini o'tkazish lozim. Shuni inobatga olgan holda birinchi bosqichda tanlangan o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli bog'lanishi aniqlash maqsadida avtoregressiv taqsimlanganlik ARDL regression modelini shakllantiramiz. Ushbu modelga asosan tanlangan o'zgaruvchilarning quyidagicha belgilab olingan. Erkli o'zgaruvchini hisoblangan kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE), aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA), qarzdorlik koeffitsiyenti (DR) va qarz kapitalini o'z mablag'lariga nisbati koeffitsiyentlar (D/E) va erksiz o'zgaruvchilarni esa to'qimachilik korxonalarida xarajatlari qilib belgilangan. Biroq, avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modelini shakllantirayotganimizda to'qimachilik korxonalarida xarajatlari ta'sir qiluvchi qarzdorlik koeffitsiyenti (DR) ta'siri aniqlanganligi uchun ekonometrik modelimizni quyidagicha ifodalaymiz.

$$mech_cost_{it} = \alpha_0 + \beta_1 dx_{it-1} + \varepsilon_{it} \quad (1)$$

Bu yerda,
Mech_cost_{it} – to‘qimachilik korxonalarida xarajatlarni o‘sishi;

Dr – to‘qimachilik korxonalarining qarzini o‘sishi.

Yuqoridagi (1) formulaga asosan, ekonometrik tahlilimizda to‘qimachilik korxonalarida xarajatlariga ta’sir qiluvchi

kapital rentabellik ko‘rsatkichi (ROE), aktivlar rentabellik ko‘rsatkichi (ROA), qarzdorlik koeffitsiyenti (DR) va qarz kapitalining o‘z mablag‘lari nisbati koeffitsiyentlari (D/E) ta’sirini avtoregressiv taqsimlanganlik ARDL modelidan shakllantiramiz. Ushbu shakllantirilgan modelning natijalarini quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (1-jadval).

1-jadval


Avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modelida baholash¹

To‘qimachilik korxonalarini xarajatlari				
O‘zgaruvchilar	Selected Model: ARDL (4,4)			
	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	Ehtimollik
<i>mech_cost (-1)</i>	0.693181	0.356232	1.945866	0.0269**
<i>dr</i>	-0.050586	0.075777	-0.667558	0.0222**
<i>Dr (-1)</i>	-0.086403	0.097697	-0.884397	0.0316**
<i>c</i>	9.410702	6.340888	1.484130	0.0344**
Modelning mezonlari				
Qoldiqlar kvadrati (R)			0.892613	
O‘zgargan qoldiqlar kvadrati			0.785225	
F-statistika			8.312076	
Ehtimollik (F-statistika)			0.017779 **	

*** 1% da statistik muhimligini, **5% da statistik muhimligini, *10% da statistik muhimligini ko‘rsatadi.

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, ARDL koeffitsiyentlaridan mamlakatimizdagi eksport hajmiga soliqlarining jami ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Boshqa omillar o‘zgarmagan (*ceteris paribus*) holda to‘qimachilik korxonalarining qarzni 1 foizga oshishi mazkur to‘qimachilik korxonalarida xarajatlari 5 foizga kamayishiga olib keladi.

Qo‘llanilgan dastur Shvars mezoniga asosan taqsimlanganliklar ichidan eng optimalini avtomatik ravishda tanlagani sababli, avtoregressiv kombinatsiyasi uchun Shvars mezoni koeffitsiyentlarini ko‘rib chiqamiz (1-rasm).



1-rasm. Shvars mezonini (top 20 ta model)²

¹ Jadval muallif tomonidan tayyorlandi

² Rasm muallif tomonidan tayyorlandi.

Akaike va Xanna-Kvin mezonlaridek, Shvarts mezonda ham eng kichik qiymatli model tanlanadi. 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, ARDL lar taqsimoti ichida eng kichik qiymati ega bo'lgani, ya'ni eng optimal model tanlovi (1,2) kombinatsiyali taqsimlanganlik bo'lib, shu taqsimot asosida yuqoridagi 1-jadvaldagi natija kelib chiqqan.

Ekonometrik tahlilda mukammal va batafsil natijaga erishish uchun ARDL modelida qisqa va uzoq muddatli bog'liqlikni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Qisqa muddatli bog'lanish testini o'tkazish uchun ekonometrik

modelga xatolikni to'g'rilash mexanizmi elementlarini qo'yib, quyidagi ko'rinishga keltiramiz

$$net\ profit_t = \alpha_0 + \sum_t^p \alpha_1 dr_{t-i} + \gamma ECM_{t-1} + \varepsilon_t$$

Bu yerda;

α_0 - konstanta, ε_t - standart xatolik, α_1 - qisqa muddatli koeffitsiyenti, β_1 - uzoq muddatli elastiklik, ECM - xatolikni to'g'rilash koeffitsiyenti, γ - o'zgarish tezligi (o'zgaruvchanlik koeffitsienti).

2-jadval

Kointegratsiya bog'liqlik testi³

O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	Ehtimollik
D(DR)	-0.050586	0.075777	-0.667558	0.0022**
CointEq(-1)	-0.306819	0.356232	-0.861290	0.0024**
Cointeq = netprofit +(-0.4465*dr +30.6718)				

*** 1% da statistik muhimligini, **5% da statistik muhimligini, *10% da statistik muhimligini ko'rsatadi.

2-jadval ma'lumotlari asosida kointegratsiya shaklida qisqa muddatli bog'liqlik testini amalga oshirganimizda xatoliklar to'g'rilanganidan to'qimachilik korxonalarida xarajatlariga korxonaning qarzini ortishi salbiy ta'sir qilishini ko'rsatadi. Jamiyatning qarzi hajmi, xususan DR koeffitsiyenti qiymati 0.0022 ni tashkil qilib, ishonchlilik darajasi 95 foiz ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Xatolikni to'g'rilash koeffitsiyenti CointEq(-1)ni ehtimollik qiymati 0.0024 ni tashkil qilib, koeffitsiyenti ishonchlilik darajasi 99 foizni tashkil etadi. Xatolikni to'g'rilash koeffitsiyenti shuni anglatadiki, uzoq muddatli

chetlanishni har chorakda 99 foiz to'g'irlanishini ko'rsatadi. CointEq(-1) koeffitsientini -0.30 ni tashkil etishi, uzoq muddatli dan qisqa muddatli chetlanishni 30 foizi to'g'irlanishini ko'rsatadi. Qisqa muddatli bog'liqlik testi shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik korxonalarida xarajatlariga jamiyatning qarzni ta'siri qisqa muddatli bog'lanishga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, to'qimachilik korxonalarida xarajatlariga korxonaning qarzni o'zgarishi uzoq muddat ta'sir qilishini ko'rsatishini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval

Uzoq muddatli bog'liqlik testi⁴

O'zgaruvchilar	Koeffitsiyent	Standart xatolik	t-statistika	Ehtimollik
dr	-0.446479	0.336413	-1.327177	0.0064**
C	30.671789	20.221292	1.516807	0.0266**

*** 1% da statistik muhimligini, **5% da statistik muhimligini, *10% da statistik muhimligini ko'rsatadi.



³ Jadval muallif tomonidan tayyorlandi.

⁴ Jadval muallif tomonidan tayyorlandi.

3-jadvaldagi ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, uzoq muddatli bog’liqlik testi esa, omilning ta’sirini bir muncha o’zgarishini ko’rsatdi. Jumladan, to’qimachilik korxonalarida xarajatlariga korxonaning qarzni o’zgarishi salbiy ta’sir qilib, statistik muhim hisoblanadi. Ushbu ko’rsatkichlarning koeffitsiyenti statistik ahamiyatli bo’lib, mazkur koeffitsiyentlar ta’sirini ishonchlilik darajasi 99 foizni tashkil etadi. Uzoq muddatli

bog’liqlik testi shuni ko’rsatdiki, to’qimachilik korxonalarida xarajatlariga o’zgarishiga jamiyatning qarzni o’zgarishi uzoq muddat ta’sir qiladi.

To’qimachilik korxonalarida xarajatlariga o’zgarishiga jamiyatning qarzni o’zgarishi ta’sirini baholash uchun shakllantirilgan modelimizni mustahkamligini tekshirish maqsadida qoldiqlarni CUSUM testini amalga oshiramiz (2-rasm).



2-rasm. Qoldiqlarning umumiy yig’indisining CUSUM testi⁵

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, avtoregressiv taqsimlanganlik (ARDL) modelida olib borilgan chuqur ekonometrik tahlil natijasi to’qimachilik korxonalarida xarajatlariga o’zgarishiga jamiyatning qarzni o’zgarishini o’zgaruvchi qisqa va o’zoq muddatli bog’lanishga ega bo’lib, xususan qisqa muddatli davrda to’qimachilik korxonalarida qarzining hajmi 1 foizga ortishi natijasida to’qimachilik korxonalarida xarajatlarini 5 foizga kamayishini ko’rishimiz mumkin. Shuningdek, uzoq muddatli davrda esa, korxonalarini qarzi 1 foizga ortishi to’qimachilik korxonalarida xarajatlari 4,4 foizga

kamayishiga olib keladi. Bundan ko’rinib turibdi, aksiyadorlik jamiyati korporativ boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishda iqtisodiy maqsadlarga e’tiborni qaratishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, to’qimachilik korxonalarida xarajatlarini minimallashtirish choralari amalga oshirishda qarzni hajmiga e’tibor qaratish lozim hisoblanadi.

Shakllantirilgan ekonometrik modelimizda prognoz qila olishi tasdiqlangan so’ng 2027-yilga to’qimachilik korxonalarida xarajatlarni qarzni ta’sirini inobatga olgan holda prognoz qilamiz.

4-jadval

To’qimachilik korxonalarida xarajatlarini o’sishi prognozi 2027-yilgacha

Yillar	To’qimachilik korxonalarida xarajatlarning o’sishi, foizda	Qarz hajmining o’sishi, foizda
2025	6,65	45,35
2026	7,28	42,70
2027	7,79	40,26
2028	8,29	40,50

⁵ Jadval muallif tomonidan tayyorlandi.

4-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotida ustuvor tarmoqlardan biri hisoblanadi va uning xarajatlar dinamikasi tarmoqning moliyaviy barqarorligi hamda samaradorligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2025–2028-yillar uchun shakllantirilgan prognoz ma'lumotlari xarajatlar o'sishi yildan-yilga ortib borishini ko'rsatmoqda. Xususan, 2025-yilda xarajatlar o'sishi 6,65 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda 7,28 foizga, 2027-yilda esa 7,79 foizga ko'tarilishi kutilmoqda. 2028-yil uchun prognoz ko'rsatkichi yanada yuqori bo'lib, 8,29 foizga yetgani kuzatiladi. Demak, to'rt yil ichida xarajatlar o'sishi qariyb 1,64 foizga ko'tarilgan.

Qarz hajmi o'sishi esa aksincha pasayish tendensiyasiga ega. 2025-yilda qarz hajmi o'sishi 45,35 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda 42,70 foizga, 2027-yilda 40,26 foizga tushishi kutilgan. 2028-yilda esa qarz hajmi o'sishi 40,50 foiz darajasida saqlanishi prognoz qilingan. Bu holat to'qimachilik korxonalarida tashqi qarz mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qisqartirib, ichki moliyaviy resurslardan kengroq foydalanishga intilayotganidan dalolat beradi.

Xarajatlar o'sishining ortishi, avvalo, xomashyo va energiya manbalari narxlarining o'sishi, ishchi kuchining qimmatlashuvi hamda inflyatsiyaning ta'siri bilan izohlanishi mumkin. Texnologik jihatdan yetarlicha modernizatsiya qilinmagan korxonalarda resurslardan samarasiz foydalanish xarajatlarning ortishiga yanada kuchli turtki berishi mumkin. Shu bois, xarajatlar o'sishi tendensiyasini cheklash uchun tarmoqda innovatsiya va avtomatizatsiya jarayonlarini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi «O'zbekiston Respublikasida Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3946-son. <https://lex.uz/docs/3914502>

Shu bilan birga, qarz hajmining pasayishi ijobiy holat sifatida baholanishi mumkin, chunki bu korxonalarining moliyaviy mustaqillikka intilayotganini ko'rsatadi. Biroq qarz mablag'lari ham strategik ahamiyatga ega bo'lib, ulardan oqilona foydalanish to'qimachilik korxonalarida modernizatsiya va texnik yangilanish jarayonlarini tezlashtirish imkonini beradi.

Agar mavjud tendensiyalar saqlansa, hamda 2028-yilga kelib xarajatlar o'sishi 8,29 foizga yetsa, qarz hajmi o'sishi 40,50 foiz atrofida barqarorlashishi mumkin. Bu esa xarajatlar o'sishining yuqori dinamikasiga qaramay, moliyaviy barqarorlik saqlanishi va to'qimachilik korxonalarida ichki resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari oshishiga ishora qiladi.

Xulosa va takliflar.

Umumiy qilib aytganda, 2025–2028-yillar davomida xarajatlar o'sishi uzluksiz oshishi kutilmoqda, shu bilan birga qarz hajmi pasayish tendensiyasida barqarorlashmoqda. Bu holat to'qimachilik korxonalarida oldiga ikki yo'nalishdagi vazifani qo'yadi: bir tomondan, xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish zarur, ikkinchi tomondan esa moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ichki va tashqi manbalardan muvozanatli foydalanish talab etiladi. Shunday ekan, innovatsiya va modernizatsiya jarayonlarini joriy qilish, energiya tejankor texnologiyalarga o'tish va mahsulot diversifikatsiyasini kengaytirish to'qimachilik sanoatida xarajatlar o'sishini cheklab, ularning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

3. Пивкин С.А. Косвенные затраты и расход денежных средств производственного предприятия. *Международный бухгалтерский учет*. 2011, 177 с.
4. Мухина Е.Р. Исследование вопроса о распределении косвенных затрат на электротехнических предприятиях. *Вестник современной науки*. 2016, 94 с.
5. Гришина Е.А. Методика распределения косвенных затрат на промышленном предприятии. *Современные тенденции развития науки и технологий*. 2015, 49с.
6. Врублевский Н.Д. *Управленческий учет издержек производства: теория и практика*. М.: Финансы и статистика. 2002, 350 с.
7. Jonathan Sallet, Ed Paisley. *Innovation Clusters Create Competitive Communities*. Huff Post Social News September 21, 2009.
8. M.H. Pesaran, R.J. Smith, and Y. Shin, *Testing for the Existence of a long run Relationship*, DAE Working paper No.9622, Department of Applied Economics, University of Cambridge, (1996).
9. S.Johansen and K. Juselius, *Maximum Likelihood Estimation and Inference on Cointegration-With Applications to the Demand for Money*. *Oxford Bulletin of Economics and Statistics*, 52(2), (1990), 169-210.
10. Xasanov B.A., Aliqulov A.I., Djumanova A.B., Suyunov Y.B., Xasanova R.B. *Amaliy boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma*. – T.: "Iqtisodiyot", 2019. 290 b.
11. Maxmudov A.N. *Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va auditi*. Monografiya. TDIU bosmaxonasi, 2002, 106 b.